

“YUMSHOQ KUCH” KONSEPSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ZAMONAVIY XALQARO MUNOSABATLARDAGI AHAMIYATI

Ilmiy rahbar: Tanimov Sharapatdin

Berdaq nomidagi QDU siyosatshunoslik va manaviyat asoslari kafedراسи dotsenti s.f.f.d (PhD)

Hayitboyev Hakimbek Abdurahimovich

QDU yuridika fakulteti siyosatshunoslik yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalqaro munosabatlar nazariyasida muhim o'rin tutuvchi “yumshoq kuch” (soft power) konsepsiyasining shakllanish tarixi, nazariy asoslari va zamonaviy geosiyosiy jarayonlardagi amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqod doirasida Jozef Nay ilgari surgan ushbu konsepsiyaning mohiyati hamda uning asosiy manbalari - madaniyat, siyosiy qadriyatlar va tashqi siyosat legitimligi ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, yumshoq kuchning “qattiq kuch” va “aqli kuch” konsepsiyalari bilan bog'liqligi, raqamli diplomatiya sharoitidagi transformatsiyasi hamda uni o'lchash metodologiyalari ko'rib chiqiladi

Kalit so'zlar: yumshoq kuch, qattiq kuch, aqli kuch, madaniy diplomatiya, xalqaro imidj, legitimlik, raqamli diplomatiya, strategik kommunikatsiya, Global Soft Power Index.

Abstract. This article analyzes the history of the formation of the concept of "soft power", which occupies an important place in the theory of international relations, its theoretical foundations and practical significance in modern geopolitical processes. The study sheds light on the essence of this concept, put forward by Joseph Nye, and its main sources - culture, political values and foreign policy legitimacy - on a scientific basis. It also examines the relationship of soft power with the concepts of "hard power" and "smart power", its transformation in the context of digital diplomacy, and methodologies for measuring it.

Keywords: soft power, hard power, smart power, cultural diplomacy, legitimacy, international image, digital diplomacy, strategic communication, Global Soft Power Index.

Аннотация. В данной статье анализируется история формирования концепции «мягкой силы», занимающей важное место в теории международных отношений, её теоретические основы и практическое значение в современных геополитических процессах. Исследование на научной основе освещает сущность этой концепции, выдвинутой Джозефом Наем, и её основные источники – культуру, политические ценности и легитимность внешней политики. Также рассматривается взаимосвязь мягкой силы с концепциями

«жесткой силы» и «умной силы», её трансформация в контексте цифровой дипломатии и методологии её измерения.

Ключевые слова: мягкая сила, жёсткая сила, умная сила, культурная дипломатия, легитимность, международный имидж, цифровая дипломатия, стратегические коммуникации, Global Soft Power Index.

Kirish. XXI asrda xalqaro munosabatlar tizimi tobora murakkablashib, davlatlararo raqobat nafaqat harbiy va iqtisodiy resurslarga, balki axborot, kommunikatsiya, imidj va madaniy jozibadorlik kabi nomoddiy omillarga ham tayanadigan jarayonga aylandi. Tarixan davlat qudrati ko‘pincha armiyaning kuchi, iqtisodiy salohiyat, strategik hududiy nazorat va resurslar bilan o‘lchanib kelgan. Siyosiy realizm maktabi vakillari kuch tushunchasini asosan majburlash va bosim o‘tkazish vositasi sifatida izohlab, davlat manfaatlarini to‘qnashuvini xalqaro tizimning asosiy qonuniyati deb baholagan. Biroq globallashuv jarayonlarining kuchayishi, axborot jamiyatining shakllanishi, raqamli texnologiyalar va ommaviy kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi natijasida xalqaro maydonda ta’sir o‘tkazish mexanizmlari tubdan o‘zgardi. Natijada harbiy kuchdan foydalanish yuqori xarajatli va siyosiy legitimlikni pasaytiruvchi omilga aylana boshladi. Shu sharoitda davlatlarning ta’sirini faqat “qattiq kuch” orqali tushuntirish yetarli emasligi ilmiy doiralarda keng muhokama qilina boshladi. Aynan shu ehtiyojdan kelib chiqib, Garvard universiteti professori Jozef Nay tomonidan “yumshoq kuch” (soft power) konsepsiyasi ilgari surildi. Mazkur nazariya davlatlar boshqa subyektlarni zo‘ravonlik yoki iqtisodiy bosim orqali emas, balki jozibadorlik va ijobiy tasavvur orqali ham o‘z manfaatlariga mos ravishda harakat qilishga undashi mumkinligini ilmiy asoslab berdi [1.173]. Bugungi kunda yumshoq kuch xalqaro munosabatlar nazariyasining muhim kategoriyasiga aylangan bo‘lib, davlatlarning global maydondagi obro‘si, ta’siri va geosiyosiy mavqeini belgilovchi strategik resurs sifatida baholanmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Yumshoq kuch konsepsiyasining nazariy asoslari Jozef Nayning “Bound to Lead: The Changing Nature of American Power” (1990) hamda “Soft Power: The Means to Success in World Politics” (2004) asarlarida keng yoritilgan. Nayning fikriga ko‘ra, kuchning asosiy shakllari uch turga bo‘linadi: majburlash (coercion), rag‘batlantirish (inducement) va jozibadorlik (attraction). Uchinchi shakl, ya’ni jozibadorlik yumshoq kuchning markaziy mohiyatini tashkil etadi [2.31]. Jozef Nay shuningdek yumshoq kuchning uchta asosiy manbasini ajratib ko‘rsatadi: 1. Madaniyat (adabiyot, san’at, ilm-fan, tarixiy meros, kino, musiqiy oqimlari, sport, raqamli content). Madaniyat xalqaro auditoriya uchun jozibador bo‘lsa, u davlatning ijobiy imidjini shakllantiradi. 2. Siyosiy qadriyatlar. Davlatning ichki siyosiy tizimi, inson huquqlariga munosabati, qonun ustuvorligi va fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanganligi xalqaro maydonda uning “namuna” sifatida qabul qilinishiga

ta'sir qiladi. Agar davlat amalda demokratik qadriyatlarga amal qilsa, uning tashqi tashabbuslari ishonch bilan qabul qilinadi. 3. Tashqi siyosatning legitimligi. Tashqi siyosatning xalqaro huquqqa mosligi, adolatli va izchil yuritilishi davlatning yumshoq kuch resurslarini real ta'sirga aylantiradi. Insonparvarlik yordami, tinchlikparvarlik missiyalari, ekologik tashabbuslar, global muammolarni hal qilishda faol ishtirok davlat obro'sini oshiradi. Legitimlik yo'qolsa, hatto kuchli madaniyat va siyosiy qadriyatlarga ega davlatning ham imidji zarar ko'rishi mumkin. Masalan, harbiy intervensiyalar yoki ikkiyoqlama standartlar yumshoq kuchni keskin pasaytiruvchi omil sifatida baholanadi. Bundan tashqari, Robert Keohane va Jozef Nayning "Power and Interdependence" (1977) asarida davlatlararo o'zaro bog'liqlik (interdependence) kuch tushunchasining yangi talqinini yuzaga chiqargan. Ushbu yondashuvda kuch faqat harbiy ustunlik emas, balki iqtisodiy, institutsional va kommunikatsion ustunlik sifatida ham ko'riladi [3.23]. Suzanne Nosselning "Smart Power" (2004) maqolasi yumshoq va qattiq kuchni uyg'unlashtirish orqali samarali strategiya shakllantirish zarurligini asoslab bergan. Ernest Wilson (2008) esa yumshoq kuch, qattiq kuch va aqlli kuchning amaliy mexanizmlarini xalqaro munosabatlar doirasida tahlil qilib, ularning davlatlararo raqobatda tutgan o'rnini ko'rsatib bergan [4.114].

Natijalar. Jozef Nayning ta'kidlashicha, yumshoq kuch — bu boshqa davlatlar va xalqaro subyektlarning xatti-harakatlariga majburlashsiz, ularning xohish-istagi va qiziqishlarini o'zgartirish orqali ta'sir ko'rsatish qobiliyatidir. Bunda asosiy instrument zo'ravonlik yoki iqtisodiy bosim emas, balki "jozibadorlik" hisoblanadi. Yumshoq kuch shunday ta'sir mexanizmini ifodalaydiki, bunda boshqa tomon sizning qadriyatlaringizni, madaniyatingizni va siyosiy modelingizni qabul qilishni istaydi. Yumshoq kuchning amaliy ahamiyati shundaki, u uzoq muddatli ta'sirga ega bo'lib, davlatning xalqaro obro'sini oshirish orqali hamkorlik imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan, AQShning Hollywood industriyasi, universitetlari, demokratik qadriyatlari va global ommaviy axborot vositalari dunyo miqyosida jozibadorlik yaratib kelgan. Xitoy esa "Konfutsiy institutlari", iqtisodiy tashabbuslari va investitsion loyihalari orqali yumshoq kuch siyosatini faol yuritmoqda.

Muhokamalar. Xalqaro munosabatlarda kuchning klassik shakli "qattiq kuch" hisoblanadi. Qattiq kuch — bu harbiy salohiyat, iqtisodiy sanksiyalar, bosim o'tkazish va majburlash orqali maqsadga erishishdir. Qattiq kuch qisqa muddatda natija berishi mumkin, ammo u ko'pincha qarshilik, norozilik va legitimlikning pasayishiga olib keladi. Yumshoq kuch esa aksincha, ixtiyoriy qabul qilishga asoslanadi. Bu jarayonda boshqa tomon sizning siyosiy yo'nalishingizni qo'llab-quvvatlashni o'zi istaydi. Shu sababli yumshoq kuch uzoq muddatli va barqaror strategik ustunlikni ta'minlash imkoniyatiga ega. Zamonaviy geosiyosiy raqobat sharoitida esa davlatlar faqat yumshoq yoki faqat qattiq kuch bilan cheklanib qololmaydi. Shuning uchun XXI asr boshlarida Jozef Nay va Suzanne Nossel tomonidan "aqlli kuch" (smart power)

konsepsiyasi ilgari surildi. Aqlli kuch — bu yumshoq va qattiq kuch elementlarini strategik uyg'unlashtirish san'ati bo'lib, resurslardan oqilona foydalanish orqali maksimal natijaga erishishni nazarda tutadi [5.131]. Masalan, harbiy operatsiyalar insonparvarlik yordami, diplomatik muzokaralar va kommunikatsion strategiyalar bilan uyg'unlashsa, ular xalqaro maydonda “agressiya” emas, balki “barqarorlashtirish” sifatida qabul qilinishi mumkin. Su joyida yana bir muhim masalani aytib o'tish joiz- yumshoq kuchning baholanishi. Yumshoq kuch nomoddiy xarakterga ega bo'lgani uchun uni o'lchash murakkab hisoblanadi. Shunga qaramay, xalqaro amaliyotda yumshoq kuchni baholash uchun maxsus indekslar ishlab chiqilgan. Jumladan: The Soft Power 30 (Portland Communications) va Global Soft Power Index (Brand Finance). Ushbu indekslar davlatlarni diplomatik tarmoq, madaniy eksport, ta'lim sifati, innovatsiya, raqamli salohiyat, biznes muhiti va global ishonch darajasi kabi ko'rsatkichlar asosida baholaydi [6.12]. Bugungi kunda yumshoq kuchning asosiy maydoni raqamli makonga ko'chib bormoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar davlatlarga global auditoriya bilan tezkor aloqa o'rnatish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli muhit dezinformatsiya, propaganda, axborot urushlari kabi xavflarni ham kuchaytiradi. Zamonaviy davrda yumshoq kuchni shakllantirishda faqat davlat organlari emas, balki fuqarolar, blogerlar, ommaviy madaniyat vakillari, sportchilar va ilmiy doiralar ham faol rol o'ynaydi. Shu sababli strategik kommunikatsiya markazlari, fact-checking tizimlari va kiberxavfsizlik strategiyalari yumshoq kuch siyosatining ajralmas qismiga aylanmoqda. Yuqorida keltirilgan fikrlar bo'yicha, tahlil uchun O'zbekiston siyosatiga e'tibor qaratsak u quyidagicha namoyon bo'ladi. O'zbekiston o'zining tarixiy-madaniy merosi va zamonaviy islohotlariga tayangan holda xalqaro maydonda yangi imidjini shakllantirmoqda. Birinchidan, O'zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosi va Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashganligi mamlakatning eng muhim yumshoq kuch resursidir. Samarqand, Buxoro va Xiva kabi qadimiy shaharlar jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga hissa qo'shgan markazlar sifatida e'tirof etiladi. "Sharq taronalari" xalqaro festivali, maqom va baxshichilik san'atini rivojlantirish tashabbuslari milliy brendni dunyoga tanitishda muhim rol o'ynamoqda. Ikkinchidan, ziyorat turizmi O'zbekiston yumshoq kuchining ixtisoslashgan yo'nalishi bo'lib, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband kabi allomalarning merosi musulmon olami uchun katta jozibadorlik manbai hisoblanadi. Ushbu salohiyatdan oqilona foydalanish mamlakatning xalqaro maydonda “ma'rifiy Islom” markazi sifatidagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Uchinchidan, O'zbekistonning mintaqaviy diplomatiyasi va “Markaziy Osiyo - ustuvor yo'nalish” tamoyili yumshoq kuchning siyosiy darajadagi muvaffaqiyatli amaliyotidir. Qo'shni davlatlar bilan ochiq muloqot, chegaraviy va suv masalalarini konstruktiv yo'l bilan hal etish, mintaqaviy integratsiyani ilgari surish O'zbekistonni Markaziy Osiyoda muhim geosiyosiy aktorga aylantirdi [7.383].

Tanqidiy yondashuvlar. Yumshoq kuch konsepsiyasi ilmiy doiralarda keng e'tirof etilgan bo'lsa-da, u bir qator tanqidiy fikrlarni ham yuzaga keltirgan. Jumladan, tarixchi Niall Ferguson yumshoq kuchni ko'pincha madaniy eksport bilan cheklangan fenomen sifatida ko'rib, u strategik manfaatlar to'qnashgan sharoitda qattiq kuchning o'rnini to'liq bosa olmasligini ta'kidlaydi [8.18]. Realist olimlar esa yumshoq kuchning natijalari noaniq va uni o'lchash murakkab ekanini qayd etadi. Yumshoq kuch davlat tomonidan to'liq nazorat qilinmasligi ham uning zaif tomonidir. Ichki siyosiy inqirozlar, korrupsiya, ijtimoiy ziddiyatlar yoki inson huquqlariga oid muammolar yillar davomida shakllangan ijobiy imidjni qisqa muddatda yo'qqa chiqarishi mumkin. Biroq shunga qaramay, zamonaviy global raqobat sharoitida yumshoq kuchni inkor etish mumkin emas. Chunki davlatning jozibadorligi va xalqaro obro'si iqtisodiy hamkorlik, investitsiya oqimi, turizm rivoji va siyosiy ittifoqlar shakllanishida hal qiluvchi omilga aylanmoqda.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, yumshoq kuch XXI asr xalqaro munosabatlar tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Davlatlarning global maydondagi ustunligi endilikda faqat harbiy yoki iqtisodiy resurslarga emas, balki madaniy jozibadorlik, siyosiy qadriyatlar, tashqi siyosat legitimligi va xalqaro imidjga ham bevosita bog'liq bo'lib qolmoqda. Yumshoq kuch davlatlarga zo'ravonliksiz va barqaror ta'sir o'tkazish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, zamonaviy sharoitda yumshoq kuchni qattiq kuch bilan uyg'unlashtirish zarurati "aqli kuch" konsepsiyasining dolzarbligini oshirmoqda. Raqamli diplomatiya va axborot makonining kengayishi yumshoq kuch siyosatini yanada murakkablashtirgan bo'lsa-da, uning ahamiyatini kamaytirmaydi, aksincha kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nye Joseph S., Jr. Bound to Lead: The Changing Nature of American Power. New York: Basic Books, 1990. 173-190-betlar
2. Nye Joseph S., Jr. Soft Power: The Means to Success in World Politics. New York: PublicAffairs, 2004. 31-35-betlar
3. Keohane Robert O. and Nye Joseph S., Jr. Power and Interdependence: World Politics in Transition. Boston: Little, Brown and Company, 1977. 23-bet
4. Wilson III, Ernest J. "Hard Power, Soft Power, Smart Power." The ANNALS of the American Academy of Political and Social Science. SAGE Publications, 2008, 114-115-betlar
5. Nossel Suzanne. "Smart Power." Foreign Affairs, Vol. 83, No. 2, 2004, 131-bet
6. Brand Finance. Global Soft Power Index 2024. London: Brand Finance Plc, 2024. 18-bet
7. Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: "O'zbekiston", 2022. 383-385-betlar
8. Ferguson Niall. "Think Again: Power." Foreign Policy, 2003, 18-23-betlar.